

## NAVOIY SHE'R O'QISH VA YOD OLISH XAQIDA

**Ahmadjonov Ibrohimjon Ilxom o'g'li**

Navoiy faqat so'z san'atining buyuk namoyandasi, olamshumul ahamiyatga molik bo'lgan ijodkorgina emas, ta'lim-tarbiya sohasida jiddiy fikrlarni bildirgan, bu sohada nazariy fikrlarni aytish bilan cheklanmasdan, katta hajmdagi amaliy faoliyat bilan shug'ullangan benazir mutafakkir xamdir. U "Maxbub ul-kulub" asarida bilim olib mustaqil mushohada yurita olmaydigan insonni "ustiga kitob ortilgan eshak"ka qiyoslaydi va "nodon" deb ataydi. Shuningdek, ulug' shoir asarida o'quvchini chiroyli yozuv, yozma nutq malakasini egallashga undaydi. U yod olish usulining imkoniyat va afzalliklarini targ'ib qiladi. Jumladan, Farhod haqida gapirib:

Agar bir qatla kurdi har sabakni,  
Yana ochmoq yuk erdi ul varaqni.  
Uqub utmak, uqub utmak shiori,  
Qolib yodida sahfa-sahfa bori,  
- degan misralarni bitadi.

"Layli va Majnun" dostonida esa matndagi so'zlar ma'nosini anglab o'qishni ulug'laydi:

Kun bor edikim besh-un sabaqni  
Anglab evurur erdi varaqni.

Uzining ustozi va do'sti Paxlavon Muhammadni ham "masnaviy va qasida va g'azal va har sinf she'rdin xo'b va ko'p yodida bo'lganligini iftixor bilan eslaydi. Navoiyning o'zi xam bu borada boshqalarga namuna edi. Adib "Muhokamat ul-lug'atayn"da shunday e'tirof etadi: "yigitligim zamoni va shabob ayyomi ayvonida kuprak she'rda sehrsoz va nazmda fusunpardoz shuaroning shirin ash'ori va rangin abyotidin ellik mingdin ortuq yod tutupmen va alar zavqu xushxolligidin o'zumni ovutupmen..."<sup>25</sup>

Navoiyning uzi ayrim suzlarni izoxlash, tushuntirish, asar, xususan, she'riy asarlar mazmunini tushunishdagi asosiy kalit deb biladi. Uzi buning guzal namunalarini beradi. Navoiyning ukituvchi xakidagi karashlari xam ibratlidir. U "Maxbub ul-kulub"da "Mudarrislar zikrida" degan aloxida fasl ajratgan. Unda mudarris "uzi bilmagan ilmni ayturga murtakib bulmasa", deydi. Shogirdlarning esa ustodlar oldida Xar doim burchdor ekanligini ("Dabiriston axli zikrida" fasli) ta'kidlaydi: «Shogird agar shayx ul-islom, agar kozidur, agar ustod andin rozidur - tengri rozidur.

Bayt:

Xaq yo'lida kim senga bir xarf o'qitmish ranj ila,  
Aylamak bulmas ado oning xaqqin yuz ganj ila»<sup>26</sup>

<sup>25</sup> Alisher Navoiy. Muxokamat ul-lutatayn - Mukammal asarlar tuplami, Yigirma tomlik, O'n oltinchi tom., Toshkent, Fan, 1999, 32-bet.

<sup>26</sup> Alisher Navoiy. Maxbub ul-kulub, - - Mukammal asarlar tuplami. Yigirma tomlik, Un turtinchi tom.. Toshkent, Fan, 1998, 28-bet.

Adibning she'r va she'riyat, nazm va nasr, ayrim adiblarning ijodkorligi borasidagi fikrlari xam adabiy ta'lim bilan bevosita alokadordir. Jumladan, Amir Temur xakida shunday yozadi: "Temur Kuragon - agarchi nazm aytmokka iltifot kilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andok xub maxal va mavke'da ukubdurlarkim, aningdek bir bayt ukigoni ming yaxshi bayt aytkoncha bor". Uning maktab, ta'lim-tarbiya xakidagi fikrlari favkulodda katta ahamiyatga ega. Urni-urni bilan esa adibning bevosita adabiy ga'limga oid fikrlari xam mavjud. Jumladan, Navoiy ukuvchilarning savodxonligi, ularning dunyokarashi, nutklarining ravon bulishi uchun nazmiy xamda nasriy asarlarning ukutilishini kayd etadi:

Yodimda mundog kelur bu mojaro,  
Kim tufuliyat chogi maktab aro,  
Kim chekar atfoli marxum zabun,  
Xar tarafdin bir sabak zabtiga un.  
Emgonurlar chun sabak ozoridin,  
Yo kalomullohning takroridin.  
Istabon tashxis xotir ustod,  
Nazm ukiturkim ravon ulsun savod.  
Nasrdin ba'zi ukurlar doston  
Bu "Guliston" yanglig-u ul "Buston".  
Manga ul xolatda tab'i bulxavas,  
"Mantik ut-tayr" aylab erdi multamas.

Ko'rinadiki, Navoiyning guvohlik berishicha, nazmiy asarlarni o'qitish "ravon ulsun savod" degan maqsadni ko'zda tutar ekan. "Tufuliyat chog'i" - bolalik davrida Sa'diyning asarlarini o'rganish an'ana tusiga kirgan ekan, o'sha davrning mudarrislari, bugungi tilimiz bilan aytadigan bo'lsak, metodist olimlari o'quvchilarga ularni mos va munosib ko'rishgan. Abu Nasr Forobiy she'riyatning o'ziga xosligi haqida mulohaza yuritar ekan, jumladan, shunday deydi: "...isbotda ilm, tortishuvda ikkilanish, ritorikada ishontirish qanchalik ahamiyatli bulsa, she'riyatda ham hayol va tasavvur shunchalik zarur bo'ladi. Ba'zida inson fe'li ko'proq hayol surishga bog'liq bo'ladi. Bu shundayki, inson bir narsani boshqa biror narsada bor, deb tasavvur qiladi. Buning natijasida u narsalarning borligini his va isbot tasdiqlagandagina uning o'sha narsada borligiga ishonib, o'shanday qilish mumkin. Hatto bu ishda uning borligi yolg'on bo'lib, faqat hayol qilingan taqdirda ham, bu harakat - fe'lni amalga oshiradi"<sup>27</sup>

She'riy asar bir kishining - shoirning olamni o'ziga xos ko'rishi natijasida yuzaga kelgan hosiladir. Hamma gap ham shu o'ziga xos qarash va ko'rishni anglab, his qila bilishda, xolos. Ana shu yaqqol bitta odamga tegishli tuyg'ular, hissiyotlar ayni paytda butun insoniyatga bir xilda aloqadorligini anglash she'rni his qilishdagi birinchi qadam, dastlabki odim bo'ladi. She'riy asarni anglash, undagi muallif ko'zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib yetish, she'r g'oyasining mag'zini chaqish uni

<sup>27</sup> Abu Nasr Forobiy. She'r san'ati. Arabchadan tarjima, izox va mukaddimalar muallifi A. Irisov - Toshkeng. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979, 8-bet.

o'qishdan, yanada aniqrog'i ifodali o'qishdan boshlanadi. Imkoni bo'lsa, she'riy asarni professional aktyorlar, taniqli so'z ustalari, o'rni bilan esa ularning musiqa yordamidagi ijrosidan foydalanish maqsadga muvofiq buladi.

Navoiy favqulodda qobiliyat egasi bo'lgan. Uning iqtidori cheku chegara bilgan emas. U juda erta shuhrat qozongan. O'zidan bir necha marta katta yoshda bo'lgan zamondoshlari uning iqtidorini tan olishgan, unga qoyil qolishgan. Navoiy she'riyati bilan muloqot qiluvchilar ichki olamining, ma'naviyatining boyishiga munosib hissa qo'shadi. Navoiyning vatan va vatanparvarlik haqidagi she'rlari faqat o'sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki bugungi avlod, xususan, yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo'lishi tabiiydir. O'quvchilar ongiga mana shu xolatlari yetkazilishi kerak.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.  
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,  
Bulbulga tikandek oshiyon bo'lmas emish.

She'rni tahlil qilish jarayonida uning yuzaga kelishiga turtki bo'lgan hayotiy voqealarning tilga olinishi ham she'r mohiyatini anglab yetishda asosiy omillardan biri bo'lishi mumkin. Ammo har bir she'r ostidagi ruhiy holatni aniqlash va anglab yetishning ancha qiyinligi, ba'zan esa umuman mumkin bo'lmasligini ham e'tirof etish kerak.